

## IX. KICHIK TADBIRKORLIK


2023 yil 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) ning soni 33 569 tani tashkil qildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 111,1 foizga o'sgan.

2023 yil yanvar-mart oylarida 1 542 ta kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 124,6 foizni tashkil etdi.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo (32,4 foiz), sanoat (14,5 foiz), qurilish (4,9 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (13,8 foiz), yashash va ovqatlanish (6,2 foiz) va boshqa tarmoqlarda tashkil etilgan.

### 2023 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi

(foizda)




**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona  
va mikrofirmalar, birlikda**

	<i>yanvar-mart 2022 yil</i>	<i>yanvar-mart 2023 yil</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 238</b>	<b>1 542</b>
Buxoro sh.	288	288
Kogon sh.	49	89
<i>tumanlar</i>		
Buxoro	110	84
Vobkent	88	98
Jondor	109	132
Kogon	87	143
Olot	27	72
Peshko'	55	66
Romitan	139	159
Shofirkon	80	73
Qorako'l	47	183
Qorovulbozor	18	33
G'ijduvon	141	122

2023 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahri (288 ta), G'ijduvon (122 ta), hamda Romitan (159 ta), Buxoro (84 ta), Jondor (132 ta), tumanlarida tashkil etildi. Kogon, Jondor, Vobkent tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Qorovulbozor (33 ta) tumanida tashkil etilgan.

**2023 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va  
mikrofimalarning hududlar bo'yicha ulushi, foiz hisobida**




2023 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro shahriga 18,7 foiz, Qorako'l tumani 11,9 foiz, Romitan tumani 10,3 foiz, Kogon tumani 9,3 foiz, Jondor tumani 8,6 foiz, G'ijduvon tumani 7,9 foiz, Vobkent tumani 6,4 foiz, Kogon shahri 5,7 foiz, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 2,1 foizni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	<i>yanvar-mart 2022 yil</i>	<i>yanvar- mart 2023 yil</i>
<b>Jami</b>	<b>1 238</b>	<b>1 542</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	205	213
Sanoat	215	224
Qurilish	75	76
Savdo	340	500
Tashish va saqlash	168	236


	<i>yanvar-mart 2022 yil</i>	<i>yanvar- mart 2023 yil</i>
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	72	96
Axborot va aloqa	16	47
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	36	21
Boshqa turdagi xizmatlar	111	129

**Yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foiz hisobida)**




2023 yil 1 aprel holatida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 31,3 birlikda, Buxoro shahrida 23,6 birlikda, Kogon tumanida 19,0 birlikda, Romitan tumanida 16,6 birlikda, Buxoro tumanida 10,9 birlikda va Peshko' tumanida 11,1 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 11,3 birlik oralig'ida Jondor, Kogon shahar, Shofirkon va Olot tumanlarida aniqlandi. Qorako'l tumanida 8,0 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

**2023 yil 1 aprel holatida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2022 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 14,1 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yil yanvar-mart oylarida bu ko'rsatkich 12,8 birlikka etdi va 2022 yilning shu davriga nisbatan 1,3 birlik yuqori.

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni**  
(har 1000 aholiga, birlikda;)



**2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlari tomonidan:**

-sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2327,2 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 37,4 foizi) yoki 2022 yil yanvar-martga nisbatan fizik hajm indeksi 100,3 foizni tashkil qildi;

- 3703,1 mlrd. so'mlik qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o'sish sur'ati 103,4 foizni (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari yalpi mahsulotining 98,3 foizi) tashkil qildi;

- 2285,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 54,5 foizi) o'zlashtirildi va 2022 yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 102,4 foizini tashkil qildi;

- 1383,1 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 80,5 foizi) bajarildi va 2022 yil yanvar- martga nisbatan o'sish sur'ati 103,5 foizni tashkil qildi;

-avtomobil transporti yuk aylanmasining 102,8 foizni (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 69,4 foizi), yo'lovchi aylanmasining esa 101,6 foizni (umumiy yo'lovchi aylanmasining 98,5 foizi) tashkil qildi;

- 2551,3 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 60,2 foizi) 2022 yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 foizini tashkil qildi;

-chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 27,9 foizi yoki 956,6 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 104,8 foizni tashkil qildi) shakllantirildi.

- 35,9 mln.AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 56,9 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2022 yilning mos davriga nisbatan 6,7 mln.AQSH dollarga yoki 71,7 foizga kamaydi, mos ravishda 103,1 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 36,8 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi, bu esa 2022 yilning mos davriga nisbatan - 44,6 mln.AQSH dollarga kamaydi.

**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>(+-)</i>
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>27 952</b>	<b>25 775</b>	<b>-2 177</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>1 238</b>	<b>1 542</b>	<b>304</b>
YAHM	foiz	67,0	66,7	-0,3
Sanoat	foiz	35,7	37,4	1,7
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	foiz	99,0	98,3	-0,7
Investitsiya	foiz	30,1	54,5	24,4
Qurilish	foiz	80,0	80,5	0,5
Savdo	foiz	94,5	91,6	-2,9
Xizmatlar	foiz	63,0	60,2	-2,8
Yuk tashish	foiz	89,4	89,1	-0,3
Yuk aylanmasi	foiz	70,6	69,4	-1,2
Yo'lovchi tashish	foiz	98,7	98,8	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	foiz	98,5	98,5	-
Eksport	foiz	67,3	56,9	-10,4
Import	foiz	63,6	36,8	26,8

**2023 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida  
kichik tadbirkorlik ulushining tuzilishi**



**2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar,  
xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning  
(fuqarolar mulki) ulushi**

	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, foizda</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 703,1	100,0
Sanoat	2 327,2	99,8
Qurilish	1 383,1	35,1
Chakana savdo	956,6	27,9




### Kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi

(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)


Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (369,1 mlrd.so'm), Kogon tumani (341,7 mlrd.so'm), Shofirkon tumani (240,5 mlrd.so'm) va G'ijduvon tumani (235,2 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Kogon shahri (86,5 mlrd.so'm) va Romitan tumanlarida (85,1 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.

### 2023 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Kogon (99,3 foiz), Olot (95,6 foiz), Buxoro (94,9 foiz), Shofirkon (89,2 foiz), Jondor (84,7 foiz) va Vobkent (60,8 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga Romitan (19,3 foiz) va Qorovulbozor (4,7 foiz) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi pastligi kuzatildi.

**2023 yil yanvar-mart holatiga jami sanoat mahsulotidagi  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, foiz**




Hududlar bo'yicha ko'proq qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi Buxoro (468,3 mlrd.so'm), Jondor (461,3 mlrd.so'm), Shofirkon (383,3 mlrd.so'm), Romitan (382,4 mlrd.so'm) va G'ijduvon (358,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Kogon (12,6 mlrd.so'm) va Buxoro shaharlarida (66,0 mlrd.so'm) va Qorovulbozor tumanida (118,5 mlrd.so'm) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2023 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (840,5 mlrd.so'm), G'ijduvon (643,8 mlrd.so'm), Qorako'l (288,4 mlrd.so'm) va Buxoro (250,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor tumani (81,1 mlrd.so'm), Peshko' (77,1 mlrd.so'm), va Kogon (23,9 mlrd.so'm) tumanida chakana tovar aylanmasi hajmi past bo'lib qolmoqda.

**2023 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Shahar va tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (628,0 mlrd.so'm), G'ijduvon (434,9 mlrd.so'm), Jondor (177,4 mlrd.so'm), Buxoro (177,0 mlrd.so'm), Romitan (164,1 mlrd.so'm) va Peshko' (155,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2023 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati**



**2023 yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlardagi hududlar bo'yicha ulushi, foizda**

	Sanoat	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish	Chakana savdo	Xizmatlar
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>37,4</b>	<b>98,3</b>	<b>54,5</b>	<b>80,5</b>	<b>91,6</b>	<b>60,2</b>
Buxoro sh.	50,5	98,1	39,8	84,0	86,9	38,6
Kogon sh.	35,0	98,8	75,9	58,1	97,6	68,9
tumanlar						
Buxoro	94,9	98,5	96,4	97,5	97,8	79,9

	<i>Sanoat</i>	<i>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	<i>Investitsiya</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Chakana savdo</i>	<i>Xizmatlar</i>
Vobkent	60,8	99,4	90,1	100,0	98,7	49,6
Jondor	84,7	98,1	86,4	100,0	98,9	78,9
Kogon	99,3	94,4	33,2	72,5	22,2	74,4
Olot	95,6	99,5	35,1	69,3	98,3	86,8
Peshko'	38,3	99,5	92,8	100,0	65,0	71,2
Romitan	19,3	98,4	16,4	56,0	99,2	72,5
Shofirkon	89,2	99,6	75,4	89,0	98,8	78,7
Qorako'l	54,7	99,2	93,8	99,9	99,0	78,6
Qorovulbozor	4,7	91,7	28,3	17,3	99,6	60,1
G'ijduvon	34,9	99,3	92,8	100,0	97,9	80,3

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Kogon (99,3 foiz), Olot (95,6 foiz), Buxoro (94,9 foiz), Shofirkon (89,2 foiz), Jondor (84,7 foiz), Vobkent (60,8 foiz) tumanlarida tashkil etadi.


Investitsiyada eng yuqori ulushlarni Qorako'l (93,8 foiz), Buxoro (96,4 foiz), G'ijduvon (92,8 foiz), Peshko' (92,8 foiz) va Vobkent (90,1 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Vobkent (100,0 foiz), Peshko' (100,0 foiz), Jondor (100,0 foiz), G'ijduvon (100,0 foiz), Qorako'l (99,9 foiz) va Buxoro tumanlari (97,5 foiz) tashkil etadi.

Chakana savdoda Qorovulbozor (99,6 foiz), Romitan (99,2 foiz), Qorako‘l (99,0 foiz), Jondor (98,9 foiz) va Shofirkon (98,8 foiz) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Olot (86,8 foiz), G‘ijduvon (80,3 foiz) va Buxoro (79,9 foiz) tumanlari tashkil etadi.

**2023 yil yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o‘zgarishi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2023 yil I-chorak yakunlariga ko‘ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda 1268 ta respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 30,1 foiz iqtisodiy vaziyatni qulay va 59,3 foiz esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida 35,2 foiz va 58,0 foiz, xizmatlar sohasida 33,4 foiz va 60,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 20,0 foiz va 75,5 foiz, sanoatda 34,9 foiz va 56,8 foizni tashkil qilganini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda 8,3 foiz, qurilishda 10,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4,5 foiz, xizmatlarda 6,4 foiz va savdoda 6,8 foizni tashkil qildi.


### Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni baholash

2023 yil I -chorak uchun, foizda



**Iqtisodiy vaziyat yaqin uch oyda** qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida yaxshilanish 52,7 foiz, oʻzgarishsiz 46,4 foiz, yomonlashish 0,9 foiz, sanoat korxonalari yaxshilanishi 58,0 foiz, oʻzgarishsiz 39,6 foizi, yomonlashish 2,4 foiz, savdo yaxshilanish 53,8 foiz, oʻzgarishsiz 43,7 foiz, yomonlashish 2,5 foiz, xizmatlarda yaxshilanish 48,3 foiz, oʻzgarishsiz 48,8 foiz, yomonlashish 2,9 foiz va qurilish sohasida yaxshilanish 53,7 foiz oʻzgarishsiz 43,9 foizi, yomonlashish 2,4 foiz kutilmoqda.

**Kichik tadbirkorlik (biznes)da iqtisodiy vaziyatning oʻzgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun koʻrilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.



**Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari (tadbirkorlik sub'ektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

**Yuridik shaxs** – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

**Yakka tartibdagi tadbirkorlik** – jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

**Korxonaning faoliyatini tahlil qilish** – uning asosida korxona faoliyatini xar tomonlama o'rganish. Natijada, ma'lumot to'plashning ma'lum usullaridan foydalanish orqali korxona faoliyatini baholash va zaif tomonlarini aniqlash uchun kerakli ma'lumotlarni olish.

**Chakana savdo** – bu oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat. Ulgurji savdo – bu katta miqdordagi tovarlarni sotishni o'z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

**Tovarlarni realizatsiya qilish** – mahsulotni samarali sotishga qaratilgan ishlab chiqaruvchi tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

**Reklama** – bu xaridorlarning keng doirasi o'rtasida mahsulot to'g'risida ma'lumotni samarali tarqatish usuliga asoslangan reklama vositasining kommunikativ shakli.

**Tavakkalchilik** – kelajakda har qanday harakatlarni amalga oshirishda, qaror qabul qilishda mumkin bo'lgan yo'qotishlar.

**Bozor** – bu savdo operatsiyalarini amalga oshirish munosabati bilan turli shaxslar o'rtasida shakllanadigan munosabatlar tizimi.